

BORLIQNING RIVOJLANISH FALSAFASI, ONTOLOGIYA VA BORLIQ HAMDA YO'QLIKNI TA'RIFLASH MUOMMOSI

Abduxalilova Mohinur Tolmas qizi

Eshboyeva Gulsanam Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Gilsanam2106@gmail.com

mohinur92tolmasovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada borliqning rivojlanish falsafasi haqida, ontologiyaga ta'rif va borliq hamda yo'qlikni ta'riflash muammosi tahlil qilinadi. Borliq tushunchasi qadimdan falsafaning markaziy muammolaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shakllanishi va rivojlanish jarayonlari turli falsafiy yo'nalishlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ontologiya bu borada eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib borliqning asosiy tamoyillari va uning mohiyatini anglashga qaratilgan. Maqolada borliq va yo'qlikning dialektik munosabati, ularning falsafiy tafakkurdagi talqinlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, borliqni ta'riflash muammosi ontologik, gnoseologik va ilmiy-nazariy kontekstda o'rganilib, uning zamonaviy falsafadagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Borliq muommosi va yo'qlik, falsafiy tafakkur, zamonaviy falsafa, Ontologiya, mavjudlik muammosi, dialektika.

Аннотация: В данной статье анализируется философия развития бытия, определение онтологии и проблема определения бытия и небытия. Понятие бытия издавна является одной из центральных проблем философии, а его сущность, процессы становления и развития по-разному трактуются различными философскими направлениями. Онтология является одним из важнейших направлений в этом плане, направленным на понимание основных принципов бытия и его сущности. В статье рассматриваются диалектические взаимоотношения бытия и небытия, их интерпретации в философской мысли. Также проблема определения бытия изучается в онтологическом, гносеологическом и научно-теоретическом контексте, и выделяется ее значение в современной философии.

Ключевые слова: Проблема бытия и небытия, философская мысль, современная философия, онтология, проблема существования, диалектика.

Abstract: This article analyzes the philosophy of the development of being, the definition of ontology and the problem of defining being and non-being. The concept of being has long been one of the central problems of philosophy, and its essence, formation and development processes have been interpreted differently by various philosophical directions. Ontology is one of the most important directions in this

regard, aimed at understanding the basic principles of being and its essence. The article examines the dialectical relationship of being and non-being, their interpretations in philosophical thought. Also, the problem of defining being is studied in an ontological, epistemological and scientific-theoretical context, and its significance in modern philosophy is highlighted.

Keywords: The problem of being and non-being, philosophical thought, modern philosophy, ontology, the problem of existence, dialectics.

Borliq voqelikning eng umumiy, ichki va tashqi, mohiyati va mazmuniga aloqador barcha jihatlarini aks ettiruvchi falsafadagi katta muhokamalarga sabab bo'lgan mavzu hisoblanadi. Borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi va bunda inson ruhi va ilohiy asosning o'zaro ta'siri masalasi bosh muammoga aylanadi. Borliq masalasi insonni falsafiy mulohaza yuritishni boshlagani zahotiyoq uning diqqat markazida o'rin olishni boshlagan. Mifologiyaning bosh vazifasi – “Borliqni kim yaratgani” haqida gapirib berishni, falsafa esa “borliqning nimaligini, u qayerdan paydo bo'lgani va qayerga yo'qolish” ni oqilona tushuntirish bilan almashtirilgani tasodifiy ham emas. Borliq muommosini falsafiy anglab yetishga bo'lgan ilk urinishlar mill.avv birinchi ming yilliklarda vujudga kelgan eng qadimgi hind va qadimgi xitoy falsafalaridayoq kuzatiladi. Xususan, “Vedalar” va ularga diniy-falsafiy sharhlar – “Upanishada” larda yaxlit ma'naviy substansiya, o'lmas jon haqidagi g'oyalar shunindek, dunyo haqidagi materialistik va ateistik tasavvurlar o'z aksini topgan so'ngra zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy asoslar – olov, havo, suv, yorug'lik, makon, vaqt tashkil etadi deb aytilgan. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga yetishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda qayerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo'qoladi kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni eng qadimgi kitob – “Rigveda” larda aks ettirganlar. Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti ishlari, o'zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolutsiyasiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miflar Suqrotga qadar, avval, tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo'lib xizmat qilgan. Ilk yunon faylasuflari o'z asarlarini dastavval “Tabiat haqida” deb nomlaganlari, ularning o'zlari ham naturalistlar, “fiziklar” deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi. Qadimgi yunon faylasufi Suqrot borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakgina bor bo'ladi, insonning bilimi qancha keng bo'lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi. Qadimgi dunyoning atomist olimi Demokrit esa borliq atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo'lmagan narsa yo'qlikdir deb o'z fikrlarini asarlarida keltirib o'tgan. Sharq donishmandlari kabi

antik mutafakkirlarni ham borliqning manbalari qiziqtirgan. Qadimgi yunon falsafasi vujudga kelgan vaqtdan boshlab ular butun borliqning birinchi sababini mavjud voqealikning birinchi sababini mavjud voqelikdan izlaganlar, uni dam suv(Fales) yoki havo(Anaksimen)deb dam hamma narsani boshqaradigan boqiy va cheksiz asos –“arsutop” deb tavsiflaganlar. Insoniyat barcha jonli narsalar jonsiz narsalardan butunlay farq qilishiga qadimdayoq e'tibor bergan, lekin buni ancha keyin tushunib yetgan. Jonli narsalar dunyosida inson alohida o'rin egallaydi. U barcha jonli narsalardan butunlay farq qiladi. Insonning bu asosiy farqi uning ongida, ideal obrazlar bilan ish ko'rish, ya'ni mavhum fikrlash va o'zini fikrlovchi jonzot sifatida anglash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq va inson borlig'i kabilardir. Shuni ham aytib o'tish joizki, borliq haqidagi ta'limotni ilmiy nuqtayi nazardan aynan ontologiya yo'nalishi o'rganadi. Ontologiya falsafaning eng asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, borliqning tabiati, mavjudlik shakllari va uning asosiy qonuniyatlari haqida tahlil olib boradi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo'lib, unda borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o'rganiladi, shakllanadi, mavjudlik sifatiga ega bo'lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. “Ontologiya” atamasi falsafaga faqat XVII asrda kirib kelgan bo'lsa-da, lekin u yunoncha o'zaklarga ega bo'lib (ontos – borliq, logos – so'z, ta'limot) borliq haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida o'rin egallaydi. Ikki yarim ming yillik falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida borliq tushunchasidan tashqari ham muhim falsafiy mazmun kasb etadigan gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq kabi tarkibiy qismlar paydo bo'ldi. Lekin ularning hammasining zahirida ontologiya yotadi. O'z navbatida, ontologiyaning doirasi ancha keng bo'lib, u eng nufuzli falsafiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi va shu tariqa o'z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko'p jihatdan belgilaydi. Aksariyat falsafiy tizimlarning kategoriya aparatini tashkil etadigan ko'p sonli falsafiy kategoriyalar orasida borliq kategoriyasi doimo markaziy o'rinni egallaydi. Chunki u barcha predmet, hodisa, voqea va shu kabi muhim xususiyatini, ularning mavjud bo'lishini, bevosita yoki bilvosita namoyon bo'lishini, o'zaro ta'sirga kirishish qobiliyatini aks ettiradi. Bu inson o'zligini va o'zini qurshagan dunyoni anglashida ilk urinishi orqali borliq kategoriyasini tushunishga harakat qiladi. Inson aqliy jonzot sifatida shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridayoq o'z dunyoqarashining negizini tashkil etadigan muhim savollarga javob topish zaruriyati bilan to'qnash keladi:

1. "Men kimman?"
2. "Meni qurshagan borliqning mohiyati nimada?"
3. "Borliq qanday va qayerdan paydo bo'lgan?"
4. "Dunyoni nima yoki kim harakatlantiradi?"

5. "Dunyoning rivojlanishida biron bir maqsad, maqsadga muvofiqlik, mo'ljal bormi?"

Inson qadimdan bunday savollarga javob berishga kirishar ekan, uning ongi, avvalo, o'zi nima bilan bevosita ish ko'rayotganini qayd etadi. Shu tariqa inson va uning ongi o'zini qurshagan barcha narsalar, avvalo, mavjud bo'lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi. Buni aniq anglamasdan, u o'zining dunyo haqidagi mulohazalarini aniq shakllantira olmaydi. Dunyoning mavjudligi, ya'ni borligi to'g'risida bahs yuritgan faylasuflar bu masalaga turlicha yondoshadilar. Xususan, Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta'limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Farobiy fikricha, ilk borliq azaliy Ollohning o'zidir. Beruniy fikricha, borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir. Yevropada o'tgan olimlar David Yum va Jorj Berkli borliqni sezgilarimiz majmuasi deb talqin etishgan. ularning ba'zilari dunyo avval ham bo'lgan, hozir ham mavjud, bundan keyin ham mavjud bo'ladi deyishsa, boshqalari, dunyo avval mavjud bo'lmagan, ilk borliq bu olamdagi barcha narsa va hodisalarni yaratuvchi Xudodir degan fikrlarini ilgari suradilar. "Ilk bor bo'lgan, (ya'ni Tangri)" – deydi Farobiy, - o'zining asl mohiyati bilan boshqa barcha narsalardan farqlidir²⁰". Chunki, u modda ham emasdir, subyekt ham emasdir, uning sur'ati ham bo'lmaydi, uning bir o'zi bu borliqda yakka-yu yagona, u shu jihatdan ham birinchidir. Fan va amaliyot taraqqiyoti natijasida dunyoning yaratilganligi, uning fazo va vaqtda chegaralanganligi, cheklanganligi to'g'risidagi oldingi qarashlar asta-sekin cheksiz chegarasizligi, shu bilan birga uning bir butunligi, doimiyliigi, abadiyligi to'g'risidagi qarashlar bilan almashinib borgan. Abadiy dunyodagi barcha narsalar, turli-tuman jonsiz va jonli organizmlar, insonlar va ularning faoliyati hatto, bir butun jamiyat ham, shubhasiz vaqtincha o'tkinchidir. Demak, borliq abadiy, ammo undagi barcha narsalar o'zgarishda va rivojlanishda, biri holatdan ikkinchi holatga, bir turdan ikkinchi turga o'tishda, chunki ular bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmaydi. Borliq tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida bilishning yuqori bosqichi - abstrakt tafakkurga xos bo'lib, fikrlash jarayonida kishilar bu tushuncha orqali dunyodagi alohida narsalar, ularning konkret belgilar va xossalari haqida emas balki, dunyodagi barcha narsalar, voqea hodisalar, jarayonlar o'rtasidagi eng umumiy jihat- ularning realligi haqida fikr yuritadilar. Borliq tushunchasi yordamida kishilar dunyoning obyektiv mavjudligi, uning cheksizligi, abadiyligi va bir butunligi haqida ilmiy va falsafiy tasavvurga ega bo'ladilar. Borliqning asosiy shakllarini tabiiy borliq yoki tabiat borlig'i, inson borlig'i, ma'naviy borliq tashkil etadi. Borliq bizning mavjudligimiz asosi, notirik va tiriklik usulidir. Borlik yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q. Dunyodagi barcha narsalarning biri ikkinchisini mavjudligini taqozo qilishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Borliq tushunchasiga qarama-qarshi tushuncha

²⁰ Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri", 131-bet

- bu yo'qlikdir. Agar borliq tushunchasi nimaningdir mavjudligini ifodalasa, yo'qlik tushunchasi esa o'sha joyda nimaningdir mavjud emasligini anglatib, nimaning aksi bo'lgan hech nimani aks ettiradi. Borliq, yuqorida qayd etganimizdek, mutlaq mazmunga ega bo'lib, muayyan narsalar shaklida va nisbatan muayyan sifatli holda mavjud bo'lgan. yaxlit obyektiv va subyektiv reallikni o'ziga qamrab oladi. Yo'qlik esa nisbiy mazmundagi tushuncha bo'lib qayerdadir yoki nimadadir nimaningdir ayni paytda mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan, yo'qlik deb o'tmishdagi va kelajakdagi hodisalarning hozirgi zamonda yo'qligini aytishadi. Bugungi hodisa kecha hali yo'q edi, ammo imkoniyatdagi borliq sifatida mavjud edi. Ertangi hodisa ham hozirchalik yo'q ammo potensial borliqdir. Biz o'tmishni bugungi kunda qoldirgan iziga qarab, kelajakni esa bugungi hodisalardagi o'zgarish sur'ati va tendensiyalariga qarab baholaymiz. Bugungi voqelik ertaga yo'likka aylanadi. Bugungi voqelik ertaga yo'qlikka aylanadi, ko'pgina tirik jonivorlar ertaga o'lik bo'ladi, ya'ni hayot o'limga aylanadi. O'lim - bu hayotning yo'qligidir. Olingan individning hayotiy borlig'i u o'lgach, yo'qlikka aylanadi. Ammo, uning qoldiqlari, tanasi birdan yo'qolmasligi mumkin. Ular ham yo'qolgach, odamlar xotirasida uning siymosi qolishi mumkin. Xullas, mutlaq yo'qlikning o'zi yo'qdir. Yo'qlik shu ma'noda nisbiy mazmun kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Sh. Madayev, M. Kasimova, “Falsafa” - T:"O'zbekiston". 2019, 48-61 betlar
2. Darslik. Z.Davronova, N. Shermuhammedova, D. Fayzixojayeva, M. Nurmatova, B. Husanov, M. Qahhorova, A. Sultanova “Falsafa”- T:"Fan va texnologiya nashriyoti". 2019, 77-110 betlar
3. M.A.Axmedova “Falsafa” - T:"Ta'lim", - 2018. 358-368 betlar.
4. N. Shermuhammedova “Falsada” darslik.- T:"TAFAKKUR BO'STONI", - 2018. 133-152 betlar
5. Mamatov Maxmud. Falsafa - Toshkent:N Zamin nashr, 2025. - 67-76 betlar
6. Diyorbek Mamadiyev, Qo'shoqov Umidbek,(2024). BORLIQ FALSAFASI HAQIDA MAQOLA. SYNAPSES: Insights across the Disciplines, 202-211
7. Nurillayevich, Omonov Bahodir, et al. “Factors of the Formation of Ecological Culture In The Education And Training System”. Journal of Pharmaceutical Negative Results(2022): 984-989
8. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.1S (2023): 5000-5006.
9. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go'zal Aralovna Ochilova, and Sitara Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL

ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." World of Scientific news in Science 1.3 (2023): 15-28.

10. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review 13 (2023): 7-10.

11. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI." TADQIQOTLAR.UZ 40.4 (2024): 135-139.

12. Ayonovna A. S. "IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY." American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.